

## “DEVONU LUG‘ATI TURK” VA BUXORODAGI SHEVALAR HAQIDA

Hamzayeva Nilufar Hafizjon qizi  
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU2-kurs talabasi.

Ilmiy rahbar – H.Ahmedov,  
f.f.n,dotsent.

### Anatatsiya:

Ushbu maqolada “Devonul lug‘oti turk asari”, uning tilshunoslik va shevashunoslikda tutgan o‘rni, qadimgi turkiy xalqlar tili va ularning bugungi kunda ham shevalarimizda faolligi haqida so‘z boradi.

### Kalit so‘zlar :

“Devonu lug‘oti turk”, sheva , Buxoro shevasi, fonetik tarkib .

“Devonu lug‘ati-t turk” asari turkiy tilshunoslikning bizga ma‘lum bo‘lgan ilk, yirik, shuning bilan birga, tengi yo‘q ulug‘ yodgorligidir... Lug‘atga asos qilib yozma-adabiy tilde qo‘llanuvchi so‘zlar olingan. Ikkinchi turli turkiy shevalar bo‘lib, dialektal leksika ana shu lug‘at qatlami tevaragida, unga chog‘ishtirib boriladi. Shunga ko‘ra asar eski turkiy yozma-adabiy tilinigina emas, eski turkiy dialektlarni o‘rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi” [1. Qosimjon Sodiqov, DLT. 4-bet]

Turkiy xalqlarning mushtarak yozma yodgorligi hisoblangan, eng qadimiy asarlardan biri bo‘lgan “Devonu lug‘oti turk” asari X asrning 2-yarmida yaratilgan, eng qadimiy ilmiy meros hisoblanadi. Aynan shu davr Qoraxoniylar hukmdorlar davri bo‘lib , bu davrda ilm fan juda rivojlandi. Bu davrga kelib, ilmiy ahamiyatga molik bo‘lgan ko‘plab asarlar yaratildi. Shulardan biri esa Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonul lug‘oti turk” asaridir. Bu asardagi lingvistik atamalar kitobida keltirilishicha, ushbu asar O‘rta Osiyoning madaniyat markazlari bo‘lgan Buxoro, Samarqand, Nishopurda yozilgan bo‘lishi mumkin deyilgan taxminlar ham keltiriladi (2.11). Xurshid Davron o‘z asarlarida shunday deydi :”Turkiylarning tarixdagi o‘rni haqida gap ketsa, aynan “Devonul lug‘oti turk” asari tilga olinadi”(5). Qoshg‘ariy turkiy xalqlarning tili, shevasi, lahjasini o‘rganib adabiy til bilan solishtirib, qiyoslab, ularni taftish qiladi. Bu o‘rganilgan ilmiy manbalar esa Mahmud Qoshg‘ariy uchun ham o‘z ijodida asosiy tayanch bo‘lib, xizmat qiladi. Qoshg‘ariy lug‘at tuzish tamoyillarida arab tilshunoslari yaratgan an‘analardan unumli foydalangan holda birinchi turkiy lug‘atni yaratadi. Bu lug‘atda ilk turkiy til qonuniyatlari o‘z aksini topdi. Qoshg‘ariy o‘z asari haqida shunday deydi,- “oldin hech kim tuzmagan va hech kimga ma‘lum bo‘lmagan alohida bir tartibda tuzilgan asar” . Aynan ushbu asarda juda ko‘p qiyosiy qoidalar: grammatik, morfologik, leksik, semantik, alomatlar ko‘rsatilgan. Foydalanuvchilarga osonlik tug‘dirish uchun sodda tartibda yozilgan. Ayni damda , ushbu asarda VIII – XI asrlar adabiy tili va adabiyoti, og‘zaki ijod namunalari ham mukammal tasvirlangan . Shuning uchun ham ushbu asar o‘zbek adabiyoti va tilshunosligida mukammal qomusiy asar deb tilga olinadi. Markaziy Osiyo va G‘arbiy Xitoy hududida istiqomat qilgan turkiy urug‘ va qabilalar , ularning ijtimoiy ahvoli, tili, tarixi, bu hududning geografiyasi, astranomiyasiga oid qimmatli ma‘lumotlarga boy. Ushbu asar arab tilida yozilgan bo‘lib , sakkiz mingdan ortiq turkiy so‘zlarga izohlarni o‘z ichida jamlagan . Ushbu so‘zlar, izohlari bugungi kun tilshunosligi uchun ham o‘zining katta ahamiyatiga egadir. Bugungi kun tilshunosligida , yozma yodgorliklarimizda keltirilgan so‘zlar adabiy tilda uchramasligi, yoki uchrasada, fonetik tarkibi o‘zgargan holda uchrashi mumkin.“Devonul lug‘otit turk “ asarida izohlangan so‘zlarning bir qancha qismi o‘zbek adabiy tilining shevalarida hozirgi kunda ham saqlanib qolingan bo‘lib, bular shevalarda faol qo‘llaniladi. (1.26) Aynan Buxoro viloyatining Shofirkon tumani shevasida ham “Devonu lug‘otit turk”da izohlangan ko‘pgina so‘zlar hozirgi kunda ham faol iste‘molda bo‘lib, bular asosan fe‘l so‘z turkumiga oid so‘zlardir . Quyida aynan Buxoro viloyati Shofirkon tuman Chitkaron qishlog‘i shevasidagi so‘zlarning “Devonu lug‘oti turk” asaridagi bir xilliklari keltiriladi:

Av ( DLT ) / Av ( Chitkaron qishloq shevasida ) .  
Egildi ( DLT ) / egildi ( qishloq shevasida ) ,  
Egdi ( DLT ) / egdi ( qishloq shevasida ) ,  
Aridi ( DLT ) / aridi ( qishloq shevasida ) ,  
Eskirdi ( DLT ) / eskirdi ( qishloq shevasida ) ,  
Baqirdi ( DLT ) / Baqirdi ( adabiy tilda “baqirdi”, ovozi balandlatib gapirdi ) / baqirdi ( qishloq shevasida ) ,  
Bezadi ( DLT ) / bezadi ( qishloq shevasida ) ,  
Beladi ( DLT ) / beladi ( qishloq shevasida ) ,  
Berdi ( DLT ) / berdi ( qishloq shevasida ) ,  
Berildi ( DLT ) / berildi ( qishloq shevasida ) ,  
Bichdi ( DLT ) / bichdi ( “bichdi” yoki “bichti” shaklida, qishloq shevasida ) ,  
Ilindi ( DLT ) / ilindi ( qishloq shevasida ) ,  
Ildi ( DLT ) / ildi ( “ildi” yoki “illi” shaklida qishloq shevasida ) ,  
Ichdi ( DLT ) / ichdi ( “ichdi” yoki “ishti” shaklida qishloq shevasida ) ,  
Ishladi ( DLT ) / ishladi ( qishloq shevasida ) ,  
Kezdi ( DLT ) / kezdi ( qishloq shevasida ) ,  
Keldi ( DLT ) / keldi ( “keldi” yoki “kelli” qishloq shevasida ) ,  
Kishnadi ( DLT ) / kishnadi ( qishloq shevasida ) ,  
Ko‘kardi ( DLT ) / ko‘kardi ( qishloq shevasida ) .  
Ko‘mdi ( DLT ) / ko‘mdi ( qishloq shevasida ) .  
Ko‘rdi ( DLT ) / ko‘rdi ( qishloq shevasida ) .  
Ko‘chti ( DLT ) / ko‘chti ( “ko‘chti” yoki “koshti” shaklida qishloq shevasida ) .  
Kuldi ( DLT ) / kuldi ( “kuldi” yoki “kulli” shaklida qishloq shevasida ) .  
Aldadi ( DLT ) / ( qishloq shevasida ba‘zan “aldadi” so‘zi “alladi” shaklida fonetik tarkibi o‘zgargan holda ham qo‘llaniladi ) ,  
Bag‘landi ( DLT ) / ( bu so‘z Chitkaron qishloq shevasida ham “bog‘landi” deb talaffuz qilinadi ) ,  
Bag‘latdim ( DLT ) / ( “bog‘latdim” Chitkaron qishloq shevasida ) / Ho‘kizni dalaga bog‘latdim.  
Kesdi ( DLT ) / kesdi ( bu so‘z Chitkaron qishloq shevasida “kesdi” yoki kesti shaklida talaffuz qilinadi, “Devonul lug‘ati turk” da esa “kesdi” shaklida keltirilib izohlangan bu so‘z adabiy tilga shu holicha o‘tgan bo‘lsa-da, shevada fonetik tarkibi o‘zgargan holda qo‘llanilib kelinmoqda ) .  
Ko‘ndi ( DLT “iqror bo‘ldi” ) / ko‘ndi ( Chitkaron qishloq shevasida bu so‘z ikki xil variantga ega bo‘lib, “ko‘ndi” yoki “ko‘nni”, bunda fonetik tarkibi biroz o‘zgargan, lekin ikki so‘z ham doimiy qo‘llaniladi )  
“Devonu lug‘oti turk” asarida qo‘llangan ushbu so‘zlar shevalarda bugungi kunda ham judayam faol hisoblanadi. “O‘zbek adabiy tili shakllanishida shevalarning barchasi u yoki bu darajada ishtirok etadi. O‘zbek adabiy tili muayyan sheva va shevalar guruhidan leksik, fonetik, grammatik xususiyatlarni adabiy til fakti sifatida oladi hamda, o‘sha sheva va shevalar guruhi taraqqiy etishi bilan birga taraqqiy etadi, chunki shevalar jonli til bo‘lib, u doimo rivojlanish va o‘zgarishda bo‘ladi, shu tufayli adabiy til ham taraqqiy etib boradi” [6. Samixon Ashirboyev, 31-bet]

Bunday so‘zlarni juda ko‘plab ketirishimiz mumkin. Nafaqat Buxoro viloyati shevalarida, balki boshqa viloyat shevalarida bunday faol so‘zlarni uchratamiz. Berdaq Yusupovning “Forish shevasi va “Devonul lug‘oti turk” maqolasida ham aynan Forish shevasi bilan bir xilliklar misollar bilan yoritilgan.(4.52) Xulosa qilib aytganda, bugungi adabiy tilimiz, shevalarimiz bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir . Tilning ajralmas qismi bo‘lgan sheva so‘zlari necha yillar davomida so‘zlovchilar nutqida o‘z faolligini yo‘qotgani yo‘q.

**Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Содиқов Қ. Девону луғати турк. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матба ижодий уйи. Т.:2017.– 488 б.
2. Ражабов Н. «Ўзбек шевашунослиги». “Ўқитувчи”, Т.: 1996. – 304 б.
3. Salima Rustamiy. “Devonu lug‘oti turk”dagi lingvistik atamalar. Toshkent 2006.
4. Юсупов Б. “Фориш шеваси ва “Девони луғати турк”. /”O‘zbek tili va adabiyoti”. “FAN”.- 1981, 3-сон.
5. [www.kh-davron.uz](http://www.kh-davron.uz)
6. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. TDPU. 2013. – 88 b.